

SEMANTIKA TAMOIYILLARINI KONTRASTIV TILSHUNOSLIK NUQTAI – NAZAR JIHATDAN O'RGANISH

Tlektsov Farit
NDPI tayanch doktoranti

XX asrning 30-yillarida strukturalizm g'oyalari ta'siri ostidagi, diaxroniyaga nisbatan sinxroniya ustunligini ta'kidlaydigan, zamonaviy tillarning mazmuniy sohasini o'rganadigan tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Sinxron semantika asosiy e'tiborini alohida so'zlarning ma'nolarini, shuningdek, leksik-semantik tizimdagi ma'nolar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga qaratadi. Bu davrda sinxroniya nuqtai - nazaridan bir nechta til materiallarini tahlil qiluvchi ayrim asarlarda zamonaviy kontrastiv tadqiqotlarning kurtaklari ko'rinib turadi.

Ulman tomonidan lisoniy birliklar ma'nosini tavsiflash muammolariga bag'ishlangan asarlar yozilganidan beri deyarli qirq yil o'tdi va bu davrda tilshunoslik fanida, xususan, sinxron tavsiflovchi semantikaning rivojlanishiga hissa qo'shuvchi sohalarda ko'p ishlar qilindi, ammo u tomonidan taklif qilingan mezonlar deyarli qayta ko'rib chiqilmadi va batafsil tahlil qilinmadi. Zamonaviy tilshunoslikning ko'plab yangi g'oyalari va yutuqlarini hisobga olishni talab qiluvchi bugungi sharoitlarda bunday tadqiqot juda dolzarb va muhim. Shuning uchun, quyida Ulman tomonidan taklif qilingan semantika mezonlarini umumlashtirish va tasniflash hamda ularni kontrastiv tilshunoslik nuqtai – nazariga muvofiq ekanini tahlil qilish, bu orqali esa, tadqiqotning keyingi o'rinlarida til materiallarini tahlil qilishda ulardan foydalanish uchun qisqa xulosalar keltiriladi. Zotan mazkur tadqiqot o'z tahlil metodi hamda tadqiq tabiatiga ko'ra sinxron muqoyasa o'lchamidagi ish hisoblanadi.

Sifat ko'rsatkichi guruhiga mansub mezonlariga, avvalo, quyidagilar kiradi:

- 1) muqoyasa qilinayotgan so'zlarning ichki shakli munosabatlari asosiy turlari;
- 2) muqoyasa qilinayotgan so'zlar signifikatlari munosabatlari asosiy turlari;
- 3) so'z ma'nosining nutqda faollashuviga ta'sir qiluvchi omillar;
- 4) til sinonimik qatorlari va antonimik juftliklar tarkibiga ta'sir qiluvchi omillar.

Son ko'rsatkichi guruhiga mansub mezonlar quyidagi parametrlarni tahlil qilishni nazarda tutadi:

1) tilning polisemik potentsiali, ya'ni tildagi monosemantik va polisemik so'zlar sonining nisbati; ushbu mezon bilan chambarchas bog'liq bo'lgan motivlangan va motivlanmagan so'zlar sonining nisbati ham;

2) tilning sinonimik potentsiali, ya'ni tahlil uchun olingan tildagi sinonimlari mavjud bo'lgan va sinonimlari mavjud bo'lmagan so'zlar sonining nisbati;

3) tilning antonimik potentsiali, ya'ni tahlil uchun olingan tildagi antonimlari mavjud bo'lgan va antonimlari mavjud bo'lmagan so'zlar sonining nisbati.

Ulman tadqiqotlarida so'z ma'nosi nazariyasi muhim o'rin tutadi. Ma'noning ism va ma'no o'rtasidagi munosabat sifatida aniqlab, u ko'p ma'nolilikning turli ko'rinishlarini tahlil qiladi: bir nechta ism bilan bir ma'no (sinonimiya), bir nechta ma'no bilan bir ism (so'zning turli xil qo'llanilishi, polisemik, omonimiya), shuningdek, ba'zi patologik vaziyatlar, bu yerda tushunmovchiliklar bo'lishi mumkin. Olim o'zining "Semantika tamoyillari" kitobi "Deskriptiv (tavsifiy) semantika" bobida so'zning mazmuni haqida mulohaza yuritib, diaxronik va sinxronik semantika ko'p ma'noliligini talqin qilish yondashuvlari o'rtasidagi farqlarni ko'rsatadi: sinxronik nuqtai - nazardan so'zning bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkinligi haqida so'z yuritadi; diaxronik yondashuv terminologiyasida so'z o'zining eski ma'nosini (yoki ma'nolarini) saqlab qolishi va bir yoki bir nechta yangi ma'noga ega bo'lishi mumkinligini qayd etib o'tadi. Mazkur holatdan esa, so'zning umumiy ma'nosi uning kontekstual qo'llanilish imkoniyatlari asosida shakllanishi haqidagi xulosaga kelish mumkin bo'ladi.

Strukturalizmning dastlabki oqimlarida semantika oz miqdorda o'rganilgan bo'lsa-da, o'tgan asrning yigirmanchi – o'ttizinchi yillarida paydo bo'lgan, sinxroniya nuqtai - nazaridan tilning mazmuniy sohasini tasvirlashga intilgan kam sonli asarlar semantikning keyinchalik fan sifatida rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi [3 ; 1931: 347]. Ular hanuzgacha tilshunoslar diqqat

markazida bo'lgan va so'nggi o'n yilliklarda tilshunoslikda keng rivojlangan g'oyalarni o'z ichiga oladi. Ular orasida turli tillarning leksik birliklarini ularning rivojlanishining zamonaviy bosqichida taqqoslash imkoniyati haqidagi g'oya ham bor edi. Masalan, Sh. Balli tomonidan tilga olingan kitobda olim tomonidan keltirilgan ko'plab fikrlar fransuz va nemis tillarining leksik materialini taqqoslash yordamida tasvirlangan: motivatsiya darajasi, morfologik tarkib, ko'p ma'nolilik xususiyatlari va boshqa so'z belgilarining xususiyatlari taqqoslanadi.

O'sha davrning sinxron semantikasida tillararo muqobillarni qidirish bir xil yoki o'xshash ma'no to'plamiga ega bo'lgan leksik birliklarni izlash sifatida talqin qilingan.

Shuni ta'kidlash kerakki, yigirmanchi asrning o'rtalariga qadar semantika (semasiologiya), asosan, leksik ma'nolar haqidagi ta'limot sifatida tushunilgan, grammatik va so'z yasash ma'nolari esa tegishli grammatik nazariyalarning tarkibiy qismi sifatida o'rganilgan. Keyinchalik (asosan generativ grammatika nazariyasining rivojlanishi ta'siri ostida) atama doirasi sezilarli darajada kengaytirildi, hozirgi kunda u barcha til darajalari, shuningdek, lisoniy jarayonlarning kechishi holati kabi mazmuniy jihatlarni ham o'z ichiga oladigan darajaga yetdi. Bugungi kunda lisoniy semantika eng umumiy ma'noda "tilshunoslik doirasida ma'noni o'rganish" deb tushuniladi [1; 1991: 1 – 24], lingvistik semantika odatda o'z ichiga so'z semantikasi, gap semantikasi va matn semantikasini qamrab oladi. Semantika fani yanada rivojlanishi, shuningdek, til birliklari ma'nolarining ichki tahlili doirasidan chiqishga va shu bilan atama mazmunini yanada kengaytirishga intilishga moyil. Ushbu an'ana ko'pincha rasmiy semantikaning paydo bo'lishi bilan bog'liq, bunda sun'iy (yaratilgan) tillar bazasida ilgari ishlab chiqilgan rasmiy tahlil usullari tabiiy tillarning semantik tuzilmalarini tavsiflash uchun qo'llaniladi, tahlil esa matematik (formal) mantiq vositalari yordamida amalga oshiriladi.

O'tgan qariyb qirq yillik davriy oraliqda leksik semantika juda tez rivojlanib, uning ko'plab yangi yo'nalishlari: generativ semantika, interpretativ semantika, kognitiv semantika, kontseptual semantika, kontekstual semantika, kombinator semantika va boshqalar kabi turlari paydo bo'ldi [4: 1990: 176]. Ularning ko'plab asosiy g'oyalari tillararo mutanosib muqobillik muammosini qo'yish va o'rganish uchun juda samarali bo'lib chiqdi. Quyida tadqiqot predmetiga xos jarayonlarni eng batafsil tavsiflay oluvchi to'rt nazariya haqida batafsilroq to'xtalamiz. Bu nazariyalar: generativ nazariya, semantik belgi nazariyasi, semantik maydon nazariyasi va prototiplar nazariyasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Lyons J. Bedeutungstheorien. // Semantik: ein internationales Handbuch der

Maratovich J. N. Journal Homepage:-www.journalijar.com.

Trier J. Der deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes. Bd. 1. Von den Anfängen bis zum Beginn des 13. Jahrhunderts. Heidelberg: Winter, 1931. 347.

Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. М.: Высшая школа, 1990 476.

n

Turaeva, S. M., Djuraeva, M. B., Ernazarova, M. N., & Jabborova, E. R. (2022). The Role of Instructive and Psychological Principles in Foreign Pedagogy. *Journal Of Positive School Psychology*, 9478-9486.

Turaeva, S. (2021). Cognitive factors in language learning: transfer, interference, overgeneralization. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).

Mukhtorovna, T. S. (2023). Uzbekistan Plans to Promote Social Work for the Welfare of Vulnerable Children and Families.

Turaeva, Shoira Muxtarovna. (2022). LANGUAGE, LEARNING AND TEACHING. *Development and innovations in science*, 1-4.

Turaeva, Shoira Muxtorovna. (2022). IMPORTANCE OF DIDACTIC AND PSYCHOLOGICAL PRINCIPLES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN TEXTBOOK. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 343-352.

r

s

c

h

u

Turaeva, DI. (2021). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE LINGVOKOGNITIVE APPROACH IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE OF PRIMARY SCHOOL. International Journal of World Languages.

Mukhtorovna, Turaeva Shoir; Munira, Mamatqulova. (2021). *POLISH SCIENCE JOURNAL*, 354.

Mukhtorovna, T. S. (2021). Hakimova Muhoyyo Mukhtor qizi, Mamatqulova Munira Uzbekistan Plans to Promote Social Work for the Welfare of Vulnerable Children and Families. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT (PJCLE)*, 10.

Mukhtorovna, T. S. Anthropopragmatic study of phraseological units in uzbek and english languages. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological*, 2022(6).

Тураева, И. (2025). SOME THEORETICAL ISSUES IN THE COMMUNICATIVE LINGUISTICS OF THE ENGLISH LANGUAGE. *Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок*, 1(2), 62-66.

Тураева, И. (2025). SOME THEORETICAL ISSUES IN THE COMMUNICATIVE LINGUISTICS OF THE ENGLISH LANGUAGE. *Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок*, 1(2), 62-66.